



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO’MINOVICH**
O‘zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq
intizomini ta’minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O’G’LI**
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to’qnashuvining
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O’G’LI**
Sun’iy intellektni ta’lim olish jarayoniga tatbiq
etishning ayrim jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**
Национальные правовые аспекты реализации
функций государства при создании и развитии
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**
Practices of the advertisement legislation of the
Republic of Uzbekistan

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

141 RASHIDOV BEXZOD NURBOEVICH

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./ZLXP4684>
UDC: 336.225.682(045)(575.1)

SOLIQ NAZORATI TADBIRLARINI AMALGA OSHIRISH ORQALI SOLIQ INTIZOMINI TA'MINLASHNING NAZARIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi
kafedrası professori v.b.,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0002-3924-5182
e-mail: ikromabdurashulovich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq intizomini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. Unda soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq intizomini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarining zamonaviy yo'nalishi va yangi g'oyasi taklif etilgan. Ushbu tadqiqot ishida asosan qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Shu bilan birga, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi. Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq intizomini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari bo'yicha turli xorijiy va mahalliy iqtisodchi va huquqshunos olimlarning fikrlari asosida muallifning tahliliy mulohazalari asosida o'rganilgan hamda xorijiy davlatlar tajribasi misolida tahlil qilingan. Natijada soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq intizomini ta'minlash borasidagi ayrim muammolar, xususan, mavjud normalarning ishlamasligi va uning sabablari aniqlandi. Muallif tomonidan soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq intizomini ta'minlashga oid qonunchilik normalaridagi bo'shliqlar va qonunosti hujjatlarini tez o'zgaruvchanlik sabablari va ularni soliq to'lovchilar uchun ta'siri tahlil qilingan. Shu bilan birga, soliq nazoratiga oid qonunchilikni qo'llashda kamchiliklar borligi, ularni tuzatish uchun ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozimligi aniqlangan. Maqolada ushbu sohadagi mavjud muammolar tahlilidan kelib chiqib taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: davlat soliq xizmati organlari, davlat soliq inspeksiyalari, soliq nazorati, soliq tekshiruvi, soliq intizomi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq tizimi, soliq to'lovchi.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЛОГОВОЙ ДИСЦИПЛИНЫ ПОСРЕДСТВОМ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ МЕР НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ

Эргашев Икром Абдурасулович,
доктор юридических наук, и. о. профессора кафедры
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной научной статье анализируются правовые механизмы обеспечения налоговой дисциплины путём реализации мер налогового контроля. Предлагаются современные направления и новые взгляды о правовом механизме обеспечения налоговой дисциплины посредством реализации мер налогового контроля. В данной исследовательской работе преимущественно использован метод сравнительно-правового анализа. Вместе с тем

применены методы наблюдения, обобщения, индукции и дедукции. Автор делает собственные аналитические выводы о правовых механизмах обеспечения налоговой дисциплины путём реализации мер налогового контроля, основываясь на изучении зарубежного опыта, а также различных мнений зарубежных и отечественных экономистов и учёных-правоведов. В результате проведённого исследования обнаружены некоторые проблемы обеспечения налоговой дисциплины посредством реализации мер налогового контроля, в частности неисполнение существующих норм и причины неисполнения. Автор проанализировал пробелы в законодательных нормах, касающихся обеспечения налоговой дисциплины путём осуществления мер налогового контроля, причины частого изменения подзаконных актов, а также их влияние на налогоплательщиков. Кроме того, установлено, что есть недостатки в применении законодательства о налоговом контроле, для устранения которых необходимо внести некоторые изменения в нормативно-правовые акты. В статье представлены предложения и рекомендации, основанные на анализе существующих проблем в этой сфере.

Ключевые слова: органы государственной налоговой службы, государственная налоговая инспекция, налоговый контроль, налоговая проверка, налоговая дисциплина, налоговое администрирование, налоговая система, налогоплательщик.

THEORETICAL AND LEGAL MECHANISMS OF ENSURING TAX DISCIPLINE THROUGH THE IMPLEMENTATION OF TAX CONTROL MEASURES

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,

Tashkent State University of Law

Acting professor of the Department of

Administrative and Financial law,

Doctor of Law (DSc)

Abstract. This scientific article analyzes the legal mechanisms for ensuring tax discipline through the application of tax control measures. Modern directions and new ideas about the legal mechanism for ensuring tax discipline are proposed through the implementation of tax control measures. In this research work, the method of comparative legal analysis has been applied. Meanwhile, observation, generalization, induction, and deduction methods have also been applied. The author makes his own analytical considerations about the legal mechanisms for ensuring tax discipline through the implementation of tax control measures based on the study of foreign experience as well as the opinions of various foreign and national economists and law scholars. As a result of the study, some problems ensuring tax discipline through the implementation of tax control measures were discovered, in particular non-compliance with existing regulations, and the reasons for their non-compliance were identified. The author analyzed the gaps in the legislation on ensuring tax discipline through the application of tax control measures, the reasons for the rapid changes in by-laws, as well as their impact on taxpayers. Meanwhile, it has been established that there are shortcomings in the application of legislation on tax control, to eliminate which it is necessary to make some amendments to the regulations. The article presents proposals and recommendations based on an analysis of existing problems in this area.

Keywords: state tax service bodies, state tax inspection, tax control, tax audits, tax discipline, tax administration, tax system, taxpayer.

Kirish

Mamlakatimizni modernizatsiya va isloh etish sharoitida soliq ma'muriyatchiligining muhim institutlaridan biri sanalgan soliq nazoratini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq

etish dolzarb vazifalardan biridir. So'nggi yillarda mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq ma'muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilash, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish bazasini hisoblash jarayonini soddalashtirish, yagona bazadan undiriladigan soliq va yig'implarni unifikatsiya qilish masalalari bilan birgalikda amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, huquqni qo'llash amaliyotidagi ortiqcha va murakkab normalarni bartaraf etish, shuningdek, soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ham amalga oshirish lozim bo'ladi.

Soliq nazoratini amalga oshirish vazifasi vakolatli davlat organlari uchun soliq ma'muriyatchiligi sohasida eng asosiy yo'nalishlardan biri hisoblansa, soliq intizomini samarali ta'minlash soliq nazoratining eng asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni bajarish va soliq ma'muriyatchiligi sohasida islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyulda "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va yig'implarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan "Davlat soliq xizmati organlari faoliyati va soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini oshirish bo'yicha" chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-fevraldagi "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5214-son farmoyishi qabul qilingan bo'lib, ushbu farmoyishda soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga soliq va yig'implarning to'liq hajmda tushishini ta'minlash, soliqqa tortilishdan bo'yin tovlash imkoniyatini istisno qilish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida nazarda tutildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strate-

giyasining muhim yo'nalishlardan biri sifatida soliq nazoratining shaffofligini ta'minlash, korrupsiya omillarini kamaytirish va soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90 foizgacha yetkazish ham nazarda tutilgan.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida uchta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi – soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirishda soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar bilan munosabat qanday bo'lish kerak va u borada xorijiy olimlar va mahalliy olimlar fikrlari qanday, ikkinchi – soliq nazorati tadbirlarini samaradorligi qanday; uchinchi – soliq nazoratini ta'minlashda soliq organi xodimi va soliq to'lovchi o'rtasidagi munosabatlar qanday bo'lishi lozim?

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, soliq tizimining sheriklik tamoyiliga asoslangan rivojlanish konsepsiyasini O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga joriy qilishning bir qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi. Ushbu maqola xorijiy keng tarqalgan usullarni konseptual, nazariy, konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Soliq nazorati davlat va jamiyat hayotida juda muhim o'rin tutadi, chunki uning vositasida davlat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy-moliyaviy resurslar jamlanadi, yalpi ichki mahsulotning zarur qismi davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun ajratiladi. Natijada soliq intizomi darajasi oshadi. Shu bilan birga, qayd etish lozimki, soliq nazorati huquqiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida adolat va demokratiya kabi tamoyillarga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimi mamlakatdagi nazorat

tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va shu sababli soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash qonunchilikni mustahkamlash, huquq tartibotga rioya etilishiga erishishni amalga oshiradi.

Nazorat funksiyasining mohiyati soliq to'lovlari va soliq tushumlarining miqdoriy aks ettirilishi, soliq intizomi darajasini oshirishdir. "Soliqqa tortishning bu funksiyasi davlat budjetiga soliq to'lovlarining o'z vaqtida va to'liqligini nazorat qilish, ularning hajmini moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj bilan solishtirish imkonini beradi. Demak, soliqlarning nazorat funksiyasini amalga oshirishning to'liqligi va chuqurligi soliq intizomiga bog'liq".

Ko'pgina tadqiqotlarda "soliq nazorati" atamasi tor ma'noda soliqlarning to'liq fiskal funksiyasini ta'minlash zarurligini bildiradi. Keng ma'noda soliq nazorati moliyaviy nazoratning ajralmas qismi bo'lib, soliq qonunchiligining bajarilishi ustidan nazoratni kompleks ta'minlash, iqtisodiyotning yashirin sektori ko'lamini qisqartirish, kapitalning noqonuniy aylanishiga chek qo'yish, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlash bilan bog'liq [1].

Soliq intizomini mustahkamlash nuqtayi nazaridan soliq nazoratini ilmiy-nazariy tadqiq etish jarayonida soliq nazoratini amalga oshirishning madaniy xususiyatlari, ijtimoiy stereotiplari, shuningdek, soliq to'lovchining ijtimoiy xulq-atvori va psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lgan nazorat tartib-qoidalarining oldini olish funksiyasiga alohida e'tibor berilishi lozim.

Tan olish zarurki, soliq nazoratini takomillashtirish, soliq to'lash intizomiga qattiq rioya qilish, soliq qonunbuzarligiga yo'l qo'ymaslik, soliq to'lovchilar va soliq organlari xodimlarining ma'naviyatini yuksaltirish tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyatini ta'minlashda muhim omillardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni 2-moddasida soliq nazorati tushunchasiga ta'rif

berilgan bo'lib, unga ko'ra, "soliq nazorati soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek, soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat".

Shuningdek, mazkur moddaning 2-qismiga muvofiq, "soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi".

Mazkur ta'rifdan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, soliq nazorati orqali soliq to'lovchilarning va davlat soliq organlari xodimlarining soliq to'g'risidagi qonun va qonunosti hujjatlariga qay darajada amal qilinayotganligi nazorat qilinadi.

Soliq nazoratiga oid munosabatlarni tartibga solishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va uni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati to'g'risida"gi, 1998-yil 24-dekabrda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi va 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarining hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 19-noyabrda PF-2114-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi soliq nazoratining huquqiy negizlarini yanada mustahkamladi.

Ushbu normativ huquqiy hujjatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari, soliqlarni hisoblash va budjetga undirishni tashkil qilishda soliq idoralari xodimlarining huquq, vazifa va majburiyatlari, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish,

tekshirishlar o'tkazish bilan bog'liq munosabatlar bayon etilgan.

Bugungi kunda demokratik davlat qurish yo'lidani borayotgan mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan izchil islohotlarni amalga oshirishda soliq siyosatini yanada takomillashtirish, amaldagi qonunchilikni liberallashtirish muhim o'rin tutar ekan, bunda, avvalo soliq nazorati shakllari va uslublarini takomillashtirish soliq ma'muriyatchiligi muhim ko'rsatkichi sifatida chuqur ilmiy-konseptual asoslarini ishlab chiqish hamda qonunchilikda mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliqlarning o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lanishi, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligi normalariga to'la amal qilishi soliq organlari tomonidan soliq nazoratini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Soliq siyosatini izchil va samarali tarzda amalga oshirishda davlat soliq organlari asosiy subyektlar hisoblanadi. Ular soliq-huquqiy munosabatlari, jumladan, soliq nazoratini amalga oshirishda ishtirok etib, soliq qonunchiligiga rioya etilishini o'z vakolatlari doirasida muntazam nazorat qilib boradilar.

Soliq nazoratini amalga oshirishda ikki asosiy subyekt ishtirok etadi:

bir tomondan, zimmasiga soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilgan soliq to'lovchilar;

ikkinchi tomondan esa, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga amal qilinishini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat soliq xizmati organlari.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 135-moddasiga ko'ra, soliq nazorati – vakolatli organlarning soliq to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyatidir.

Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, soliq organlari soliq siyosatini amalga oshiruvchi, soliq qonunchiligining qo'llanishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi va bu orqali iqtisodiyotning barqarorligini ta'min-

lashga ko'maklashuvchi vakolatli davlat organlaridir.

Soliq xizmati idoralari tizimi haqida Q. Yahyoyev to'xtalib: "Soliq xizmati idoralari tizimi – soliqlar va yig'implarni to'g'ri hisoblash va to'liq budjetga (budjetdan tashqari fondlarga) tushishini nazorat qiluvchi davlat soliq xizmati idoralari yig'indisidir", [2] – deb ta'rif bergan.

Shu o'rinda soliq nazorati bo'yicha adabiyotlar tahliliga e'tibor qaratsak, jumladan, I. Zavalishinaning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: "Soliq nazorati – soliq xizmati organlarining soliq qonunchiligining bajarilishini nazorat qilish, soliq va yig'implarning (jumladan, pensiya ajratmalarining) budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarga (jumladan, pensiya jamg'armasiga) to'liq va o'z vaqtida undirilishini ta'minlashdan iborat" [3].

A. Brzgalinning fikricha, "soliq nazorati – vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan yo'llar orqali soliqlarning budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'liq va o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash vositasidir" [4].

D. Chernik, A. Pochinok va V. Morozovlarning qarashlariga ko'ra, "Soliq nazorati – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va yig'implarning to'la hajmda va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlovchi nazorat turidir" [5].

I. Kucherov qarashlariga ko'ra: "Soliq nazorati – soliq to'lovchilar va soliq agentlari o'rtasidagi soliq to'lovlari amalga oshirilishi tizimini yuzaga keltirish maqsadida vakolatli subyektlar tomonidan tegishli shakl va usullar yordamida olib boriladigan, moliyaviy nazoratning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan faoliyatdir" [6].

Y. Porollo "Soliq nazoratini, birinchidan, iqtisodiyotning davlat boshqaruv elementi yoki funksiyasi, ikkinchidan, soliq qonunchiligini amalga oshirish bo'yicha asosiy faoliyat", – deb ta'kidlagan [7].

B. Toshmurodovanning fikricha, "Soliq nazorati – soliq to'lovchilarning soliq qonun-

chiligiga to'liq rioya etishi, soliqlar va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq undirilishi, to'g'ri hisoblani-shi ustidan soliq organlari hamda bojxona or-ganlari tomonidan olib boriladigan nazorat-dir" [8].

M.Yo'ldoshev va Y.Tursunovlarning fikricha, "Soliq nazorati davlat soliq xizmati idoralari tomonidan soliqqa tortilishi lozim bo'lgan subyektlar va obyektlarni hisobga olish, soliqlarga doir tekshiruvlar o'tkazish, soliq to'lovchilar, boshqa shaxslarni so'rab-surishtirish vositalari hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi" [9].

L. Mironovanning fikriga ko'ra, "Soliq nazorati davlat soliq siyosatini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan organlar tomonidan soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga amal qilishlari ustidan nazorat funksiyasini amalga oshirilishida namoyon bo'ladi. Samarali moliyaviy nazorat davlatga muayyan mablag' to'plash imkonini beradi. Bunday mablag' to'plashdan ko'zlangan maqsad ulardan yana jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanishdir" [10].

V. Nuritdinova "mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlashda soliq nazoratining ahamiyatini oshirish borasida soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasi-ning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish; soliq nazoratini amalga oshirish-ning zamonaviy uslublarni joriy etish"ni soliq ma'muriyatchiligi sohasidagi asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatib o'tgan [11].

A. Tagayev, F. Xashimoto, G'. Ro'ziyev, K. Xotamovlarning fikricha, "Soliq nazorati – soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishni, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, soliqlarning, majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishdan iborat" [12].

G.G. Nesterovning fikricha, keng ma'noda "soliq nazorati tushunchasi vakolatli organlarning barcha faoliyat doirasini (soliq

to'lovchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, soliq hisobi, soliq tekshiruvlari, shu bilan birga, soliqlarni undirish bilan bog'liq nazorat qiluvchi organlar faoliyatini ham) qamrab oladi [13].

B. Toshmurodova va S. Elmirzayevlar fikriga ko'ra, "Soliq nazorati deganda davlat soliq organlarining soliq to'lovchilar faoliyatini o'rganishga qaratilgan faoliyati va bu borada ularning amalga oshiradigan ishlari tushuniladi" [14].

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflarni tahlil qilgan holda soliq nazoratining huquqiy va iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqilganligini ko'rsatishimiz zarur. *Huquqiy kategoriya sifatida soliq nazorati* soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligi me'yorlariga qat'iy rioya qilishlarini ta'minlash usuli hisoblanadi. *Iqtisodiy kategoriya sifatida* esa soliqlar va yig'implarning belgilangan tartibda tegishli budjetlarga undirilishi va moliyalashtirish manbalari va soliq intizomini ta'minlash vositasidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda soliq nazoratining quyidagi funksiyalarini alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1. Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar yoki suiiste'molliklarni aniqlash.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi talablariga muvofiq soliq nazoratini to'liq amalga oshirish uchun soliq to'lovchilarga bir qator majburiyatlar yuklatilgan, jumladan, soliq hisobida turish, yillik daromadlar haqida deklaratsiya taqdim etish, soliqlar bo'yicha elektron bazaga hisobotlarni va moliya-xo'jalik faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritish. Soliq nazoratini amalga oshirish uchun, o'z navbatida, davlat soliq organlariga keng vakolatlar berilgan.

2. Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar yoki suiiste'molliklar bartaraf etilishi orqali soliq intizomining samaradorligini oshirish.

Mazkur funksiya, o'z navbatida, yuqoridagi funksiyaning mantiqiy davomi sanalib, soliq to'lovchida soliqlar va yig'imlarga oid kamchiliklar aniqlangan taqdirda soliq idoralari xodimlari ularni o'z vaqtida bartaraf qilish bo'yicha qonunchilikda nazarda tutilgan vositalarni amalga oshirishlari shart. Bunda soliq to'lovchi tomonidan qonun hujjatlari normalarini tushunish yoki qo'llashda yuzaga kelgan tushunmovchiliklar bo'yicha ularga tushuntirishlar berish, ya'ni metodik yordam ko'rsatish bo'yicha soliq organlari xodimlari majburiyatlarini ham unutmaslik lozim.

3. Soliq qonunchiligi buzilishiga olib kelgan omillar va sabablarni tahlil qilish orqali kelgusida ularning yuz bermasligi bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Mazkur funksiya soliq organlarining hokimiyat vakolatlariga ega ekanligi bilan belgilanib, huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf qilish bilan birgalikda ularning kelgusida yuz bermasligiga oid chora-tadbirlarni ham ko'rish majburiyatidan kelib chiqadi.

Davlat soliq organlari tomonidan soliq intizomini ta'minlashda asosan ikki uslubdan shu kunga qadar foydalanib kelinganligini qayd etish zarur. Birinchisi *nazorat uslubi* sanaladi. Bir so'z bilan aytganda, nazorat – soliq organlarining soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish holatlarini aniqlash bo'yicha maxsus shakl va usullardan foydalangan holda, soliq to'lovchilar va soliq agentlari o'rtasida yuqori soliq intizomiga erishishga qaratilgan faoliyati.

Ikkinchi uslub – *majburlash*. Majburlash – soliq organlarining insofsiz soliq to'lovchilarga nisbatan jarima va boshqa jazo choralari qo'llash orqali soliq majburiyatlarini bajarishga qaratilgan faoliyati [15]. K. Murphy o'z asarida soliq to'lovchilar xulq-atvoriga avtoritar majburlash strategiyasini qo'llashga soliq organlari xodimlarining ta'sirini o'rganib, jazolovchi majburlov choralari hukumat qarorlari va belgilangan qoidalarga keng qarshilikni keltirib chiqarishi mumkinligini aniqlagan [16].

Qayd etish zarurki, o'tgan yillarda davlat soliq xizmati xodimlari soliq siyosatini olib borishda asosan boshqaruv, nazorat va majburlash usullaridan foydalangan bo'lsa, hozirgi vaqtda asosiy e'tibor axborotlashtirish, soliq to'lovchilarga maslahat berish va ularga yo'nalish ko'rsatish kabi uslublarga qaratilmoqda. Demak, soliq siyosatida soliq to'lovchilar manfaatlari ko'proq hisobga olinib boshladi.

Soliq nazoratini ta'minlashda soliq organi xodimi va soliq to'lovchi o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirish, korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Avstraliya, Gonkong, Xitoy, Yangi Zelandiya va Singapur kabi nisbatan rivojlangan mamlakatlarda soliq to'lovchilar to'g'ridan to'g'ri soliq organlariga soliq bo'yicha to'lovlarini to'lay olmaydi. O'z navbatida, rivojlanayotgan mamlakatlarda an'anaviy noelektron to'lov vositalarining cheklanganligi korrupsiya xavfining oldini olish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Filippinda soliq to'lovchi o'z hududida vakolatli banklar bo'lmasagina, soliq inspektorlariga to'g'ridan to'g'ri to'lashi mumkin. To'lov usullarining keyingi kategoriyasi – agentlar (banklar va pochta bo'limlari) va telefon banking orqali shaxsan to'lash. Agentlar orqali to'lov usuli soliq organlariga yukni kamaytirishga yordam beradi, chunki to'lov operatsiyalari moliya institutlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu 19 ta yurisdiksiyada qo'llanadigan eng keng tarqalgan to'lov usuli hisoblanadi [17].

Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar, o'tgan yillardagi ma'lumotlar, statistik ma'lumotlar asosida soliq to'lovchilarning soliqlar va yig'imlar us-tidan monitoring olib borish talab etiladi.

Mamlakatimizda soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish davlat soliq xizmati organlari tomonidan Soliq kodeksi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa me'yoriy hamda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, soliq nazorati mamlakatdagi nazorat tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va shu sababli soliq qonunlariga rioya etilishiga erishishni ta'minlash qonunchilikni mustahkamlash, huquq-tartibotiga rioya etilishiga erishishni anglatishi lozim.

Fikrimizcha, soliq nazorati soliq to'lovchilarning amaldagi soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasiga erishishga, soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurashishga qaratilishi zarur. *Yangi O'zbekiston sharoitida soliq nazoratining bosh funksiyasi soliq to'lovchilarni ishontirish va soliq huquqbuzarliklarini profilaktikasi bo'lishi zarur.*

Xulosalar

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, soliqlar va yig'imlarning o'z vaqtida va to'liq hajmda tegishli budjetlarga kelib tushishini ta'minlashning hamda soliq intizomini mustahkamlashning asosiy vositasi soliq nazoratidir.

Fikrimizcha, tor ma'noda soliq nazorati vakolatli organlar tomonidan bevosita o'tkaziladigan tekshirishlarni anglatib, o'zida keng ko'lamli soliq ma'muriyatchiligi funksiyalarini hayotga joriy qilishga qaratilgan faoliyatni nazarda tutadi.

Soliqlarning o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lanishi, soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligi normalariga to'la rioya etilishi, soliq organlari vakolatli shaxslarining soliq huquqiy munosabatlari jarayonida amalga oshirayotgan xatti-harakatlari qonuniyligini ta'minlash va xolisona baholashda soliq nazorati asosiy vosita hisoblanadi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, soliq intizomi darajasini oshirish soliq organlaridan o'z faoliyatida shaffoflikni, soliq nazorati tartib-taomillari samaradorligini oshirishni, soliq ma'muriyatchiligi tizimidagi texnologik innovatsiyalar salohiyatidan faolroq foydalanishni talab etadi [18].

Soliq nazoratiga keng va tor ma'noda yondashib, ta'rif berish mumkin.

Keng ma'noda soliq nazorati – davlatning samarali moliyaviy siyosati va soliq intizomi-

ni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni saqlash maqsadida amalga oshiriladigan davlatning moliyaviy chora-tadbirlari majmuasidir.

Tor ma'nodagi soliq nazorati – davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan soliqlar va yig'imlarning o'z vaqtida hamda to'liq hajmda kelib tushishi, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga rioya etishini nazorat qilish shakllari majmuidir.

Ko'pgina tadqiqotlarda "soliq nazorati" atamasi tor ma'noda soliqlarning to'liq fiskal funksiyasini ta'minlash zarurligini bildiradi. Keng ma'noda soliq nazorati moliyaviy nazoratning ajralmas qismi bo'lib, soliq qonunchiligining bajarilishi ustidan nazoratni kompleks ta'minlash, iqtisodiyotning yashirin sektori ko'lamini qisqartirish, kapitalning noqonuniy aylanishiga chek qo'yish bilan bog'liq.

Soliq intizomini mustahkamlash nuqtayi nazaridan soliq nazoratini ilmiy-nazariy tadqiq etish jarayonida soliq nazoratini amalga oshirishning madaniy xususiyatlari, ijtimoiy stereotiplari, shuningdek, soliq to'lovchining ijtimoiy xulq-atvori va psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lgan nazorat tartib-qoidalarining oldini olish funksiyasiga alohida e'tibor berilishi lozim.

Soliq nazoratida tavakkalchilikka asoslangan yondashuv muhim rol o'ynaydi, ammo tuzilgan huquqiy tartibga solishsiz u samaradorlikni ko'rsatmaydi [19]. Bunday holda huquqiy tartibga solish barcha turdagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq komplayensini qo'llashda va ularning soliq nazorati organlari bilan munosabatlarida aniqlik va tenglikni belgilashi kerak [20].

Bugungi kunda demokratik davlat qurish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan izchil islohotlarni amalga oshirishda soliq siyosatini yanada takomillashtirish, amaldagi qonunchilikni liberallashtirish muhim o'rin tutar ekan, bunda, avvalo, soliq nazorati shakllari va uslubla-

rini takomillashtirish soliq intizomini ta'minlashning muhim ko'rsatkichi sifatida chuqur ilmiy-konseptual asoslarini ishlab chiqish hamda qonunchilikka singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq nazoratini soliq intizomini ta'minlashning bir muhim instituti sifatida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagilarni xulosa qilib aytish mumkin:

Birinchisi, soliq nazorati bu soliq ma'muriyatchiligining bir ko'rinishi sanalib, soliq qonunchiligini ijro etmaslik yoki ijro etish vaqtida yo'l qo'yilgan xato, suiiste'molliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf qilishga qaratilgan davlat boshqaruv organlarining faoliyati sanaladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, soliq intizomini ta'minlashning alohida shakli sifatida soliq nazoratiga quyidagi ta'rifni berish mumkin: *"soliq nazorati – o'z ichiga soliq qonunchiligi-da o'rnatilgan talablarini bajarish (bajarmaslik)da yo'l qo'yilgan suiiste'molliklarni aniqlash, oldini olish yoki ularni bartaraf etish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruv*

organlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir".

Ikkinchisi, soliq nazorati davlatning fiskal manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan bo'lib, uning ahamiyatini davlat manfaatlari qanchalik darajada qanoatlantirilganligidan kelib chiqib emas, balki huquqiy prinsiplarga qanchalik rioya qilingan holda amalga oshirilganligi bilan baholash zarur.

Uchinchisi, soliq nazoratining muhim o'ziga xos belgilaridan biri uning davlat-hokimiyat xarakteriga ega ekanligidadir. Qayd etish zarurki, soliq nazorati amalga oshirilishida turli davlat majburlov choralari qo'llansa-da, soliq nazorati o'z mazmuniga ko'ra, majburlov xarakteridagi davlatning funksiyasi sanalmaydi. Majburlov vositalari soliq to'lovchining harakatlariga mos ravishda sud tomonidan qo'llanadi.

To'rtinchisi, soliq nazorati bir tarafdin davlat faoliyatining bir shakli sifatida ko'rib chiqilsa, ikkinchi tarafdin qonuniylikni ta'minlashning tashkiliy vositasi sifatida ko'rib chiqiladi.

REFERENCES

1. Bondarev D.M. Nalogovaya distsiplina v protsessakh formirovaniya dokhodov byudzheta [Tax discipline and the process of formation of income tax budget]. PhD thesis. 2019. Available at: <http://dlib.rsl.ru>
2. Yahyoyev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti [Theory and practice of taxation]. Tashkent, 2003, pp. 183–185.
3. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot [Taxes: theory and practice]. Tashkent, The world of economics and law Publ., 2005, p. 74.
4. Bryzgalin A.V., Il'inykh D.A. Nalogovyy kontrol' [Tax control]. *Taxation and Financial Law*, 2011, no. 5.
5. Chernika D.G. Nalogi i nalogooblozheniye [Taxes and taxation]. Moscow, Yurayt Publ., 2013.
6. Kucherov I.I., Sudakov O.Yu., Oreshkin I.A. Nalogovyy kontrol' i otvetstvennost' za narusheniya zakonadatel'stva o nalogakh i sborakh [Tax control and responsibility for violations of legislation on taxes and fees]. Moscow, 2001, p. 26.
7. Porollo Ye.V. Nalogovyy kontrol': printsipy i metody provedeniya [Tax control: principles and methods of implementation]. Moscow, 1996, pp. 6–7.
8. Toshmurodova B.E. Soliq nazorati [Tax control]. Tashkent, TMI Publ., 2007, 21 p.
9. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Soliq huquqi [Tax law]. Tashkent, Moliya Publ., 2000, 152 p.

10. Mironova L.V. Povysheniye effektivnosti nalogovogo kontrolya v protsesse obespecheniya [Increasing the efficiency of tax control in the process of ensuring]. Moscow, Yurait Publ., 2011, p. 7.
11. Nuritdinova V. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash garovidir [Improving tax administration is a guarantee of ensuring the stability of local budget revenues]. *International Scientific Electronic Journal of Finance and Accounting*, 2018, pp. 120–122.
12. Tagayev A., Xashimoto F., Ro'ziyev G., Xotamov K. Soliq nazorati [Tax control]. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2010, p. 4.
13. Nesterov G.G. Razvitiye mekhanizmov nalogovogo kontrolya v sisteme obespecheniya ekonomicheskoy bezopasnosti [Development of tax control mechanisms in the system of ensuring economic security]. PhD thesis. Moscow, 2010, p. 45.
14. Toshmurodova B., Elmirzaev S. Korporativ soliq menejmentida ichki soliq nazorati va tahlili [Internal tax control and analysis in corporate tax management]. *Finance*, 2010, no. 3.
15. Xantayeva N.L. Teoreticheskiye osnovy nalogooblozheniya [Theoretical foundations of taxation]. Ulan-Ude, VSGTU Publ., 2006, pp. 125–126.
16. Murphy K. The role of trust in nurturing compliance: A study of accused tax avoiders. *Law and Human Behavior*, 2004, no. 28.
17. Tikhonova A.V. O roli informatsionno-kommunikatsionnykh tekhnologiy v nalogovykh pravootnosheniyakh: rossiyskiy i zarubezhnyy opyt [On the role of information and communication technologies in tax legal relations: Russian and foreign experience]. *Taxes and Taxation*, 2019, no. 7, pp. 51–63. DOI: 10.7256/2454-065X.2019.7.30591
18. Kuzmenko V.V. Problemy formirovaniya effektivnoy nalogovoy politiki v otnoshenii tenevogo sektora ekonomiki [Problems of forming an effective tax policy in relation to the shadow sector of the economy]. Stavropol Publ., 2016, no. 4, pp. 69–73.
19. Yermolovskaya O.Yu., Vertiprakhova A.A. Nalogovyy komplayens – pravo, obyazannost' ili moral'naya norma [Tax compliance – a right, obligation or moral norm]. *Economic Security*, 2021, no. 3, pp. 685–696. DOI: 10.18334/ecsec.4.3.112093
20. Kuznetsov N.G., Sepilova Ye.S. Nalogovyy monitoring nalogoplatel'shchikov: rossiyskiy opyt i perspektivy [Tax monitoring of taxpayers – Russian experience and prospects]. *Financial Research*, 2014, no. 4.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.